



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



HUDUDLARDA INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

ADVANTAGES OF EFFECTIVE USE OF INVESTMENT RESOURCES IN REGIONS

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

ПРЕИМУЩЕСТВА ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В РЕГИОНАХ

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

Received: May 20, 2026 May: May 21, 2026 May: May 22, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda infratuzilmani yaxshilash, har bir hududning ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, investitsiya jalb qilish, hududning investitsion resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish masalalari bayon etilgan. Hududlarda mahalliy resurslardan samarali foydalanish natijasida ijtimoiy sohani rivojlantirish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish masalalari yoritilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanishning afzalliklari xususida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya muhiti, investitsion resurslar, yalpi hududiy mahsulot, ijtimoiy soha, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiy o'sish, modernizatsiya, ekspert salohiyati, investitsion loyiha.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования инфраструктуры в регионах, повышения темпов роста производства в каждом регионе, обеспечения занятости населения, привлечения инвестиций и расширения возможностей эффективного использования инвестиционных ресурсов регионов. На основе статистических данных проанализированы вопросы развития социальной сферы и сокращения межрегиональных различий, достигнутые за счёт рационального использования местных ресурсов. Кроме того, в статье представлены выводы и практические рекомендации относительно преимуществ эффективного использования инвестиционных ресурсов в регионах.

Ключевые слова: инвестиционный климат, инвестиционные ресурсы, валовой региональный продукт, социальная сфера, инновационное развитие, социальная инфраструктура, экономический рост, модернизация, экспортный потенциал, инвестиционный проект.

Abstract: This article examines the issues of improving infrastructure in the regions, increasing the production growth rates of each region, ensuring employment of the population, attracting investments, and expanding the opportunities for efficient utilization of regional investment resources. It also analyzes, based on statistical data, the development of the social sector and the reduction of interregional disparities achieved through the effective use of local resources. Furthermore, the article presents conclusions and practical recommendations regarding the advantages of efficient utilization of investment resources in the regions.

Keywords: investment climate, investment resources, gross regional product, social sector, innovative development, social infrastructure, economic growth, modernization, export potential, investment project.

KIRISH

Hududlarni barqaror va muvozanatli rivojlantirish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududlarda mavjud investitsion resurslardan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat

qiladi. Investitsion resurslar deganda moliyaviy mablag'lar, tabiiy boyliklar, mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, innovatsion salohiyat va intellektual kapital tushuniladi. Hududlar kesimida investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, balki butun mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir k o'rsatadi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-



iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rganish holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqiladi; [1].

Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanishning asosiy afzalliklari birinchi navbatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Vaholanki, hududlarda investitsiyalarni samarali jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshiradi, yangi korxonalar tashkil etiladi, mavjudlari modernizatsiya qilinadi. Har bir hududning infratuzilmasini yaxshilash, ayniqsa investitsion resurslar orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish bir qator afzalliklarni yuzaga keltiradi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi oshadi;

- Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi;

- Mahalliy byudjet daromadlari ko'payadi;
- Eksport salohiyati kengayadi; [2].

Sanoat zonalarini tashkil etish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Investitsion resurslardan samarali foydalanishning eng muhim ijtimoiy afzalliklaridan biri aholi bandligini ta'minlashdir. Yangi ish o'rinlari yaratish va bandlikni oshirish eng muhim o'rinni egallab, yangi investitsion loyihalar amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Natijada, ishsizlik darajasi kamayadi, aholining real daromadlari oshadi. Migratsiya oqimi qisqaradi, hududda ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi. Natijada, har bir hududda infratuzilmaning rivojlanishi, samarali investitsiya siyosatining yuritilishi natijasida transport, energetika, aloqa va kommunal sohalarning rivojlanishiga olib keladi. Infratuzilma rivojlangani sari hududning investitsion jozibadorligi ham oshadi.

Hududda infratuzilma yaxshilanishi hisobiga bir qator afzalliklarni yuzaga keltiradi. Afzalliklar tarkibiga aytishimiz mumkinki, yo'l va transport tizimi yaxshilanadi, elektr energiyasi va suv ta'minoti barqarorlashadi, logistika imkoniyatlari kengayadi, hududga yangi investorlar jalb qilinadi. Infratuzilmaning rivojlanishi boshqa sohalarning ham tezkor o'sishiga zamin yaratadi. Ma'lumki, har bir hudud o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslariga ega. Investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish orqali ushbu resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish yanada kengayadi. Qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori hududlarda agroklastlar tashkil etish, turizm imkoniyatlari mavjud hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, foydali qazilmalar mavjud hududlarda qayta ishlash sanoatini yo'lga qo'yish kabi ustuvor masalalar hal etiladi. Bu esa hududning ixtisoslashuvini shakllantiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning investitsion resurslardan samarali foydalanishning afzalliklari va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar ko'plab nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlar sharhi orqali investitsion korxonalarning samarali faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy omillar va istiqbolli yo'llar tahlil qiladi.

Toshpo'latov N.S. (2015) Investitsion iqtisodiyot va investitsiyalar asarida texnologik rivojlanish va innovatsiyalar orqali investitsiyalarning oshirishning ahamiyatini ko'rsatadi. U innovatsion jarayonlarni rivojlanish orqali investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatlarini o'rganadi. Uning fikricha, texnologik yangiliklar va innovatsion tashabbuslar orqali korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin. [3].

Zengler T. (2004) investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, ya'ni yangi va istiqbolli tarmoqlarga investitsiyalarni yo'naltirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi va iqtisodiy risklarni kamaytiradi. [4].

Xolmatov M.Sh. (2018) Investitsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiya asarida investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning zarurligini ko'rsatdi. Xolmatov, ayniqsa O'zbekiston vqishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida investitsion tarmoqlarni kengaytirish va yangiliklarni rivojlanishini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, tarmoqlarni kengaytirish va yangiliklarni rivojlanishini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi va ish o'rinlari yaratiladi. [5].

Yuqoridagi adabiyotlarda ko'rsatilganidek, hududlarning investitsion resurslar samaradorligini oshirish orqali, yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuvlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish va ularning afzalliklarini samarali tashkil qilishning muhim jihatlari tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Tahliliy metodologik yondashuv. Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish va uning o'ziga xos jihatlari tizimli asosida o'rganiladi. Ushbu yondashuv natijasida hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish kontekstida tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha istiqbolli yo'llarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, tahliliy metodlar orqali Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish natijasida iqtisodiy samaradorlik, hududning infratuzilmasini yaxshilash va boshqa bog'liq omillar chuqur o'rganish rejalashtirilgan.



2.Statistik tahlil. Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish samaradorligini tahlili statistik metodlardan foydalaniladi.Statistik tahlil orqali investitsiyalarning hududlardagi iqtisodiy salohiyatga ta'siri va ularning o'sish sur'atlari aniqlanadi. Shuningdek,hududlarda infratuzilmani yaxshilash,hududlarning potentsial salohiyatini oshirishda investitsion resurslarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga olib keluvchi omillarni aniqlash uchun ma'lumotlar to'plami shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotga investitsion resurslardan samarali foydalanish zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkonini ham beradi. Bu esa, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Birgina zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida mehnat unumdorligi oshadi,mahsulot tannarxi kamayadi,sifat yaxshilanadi,raqobatbardoshlik ortadi.Uning mahsuli natijasida innovatsion loyihalar hudud iqtisodiyotini an'anaviy modeldan zamonaviy va yuqori qo'shimcha

qiymat yaratuvchi modeliga o'tkazadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan eng muhim masalalardan biri sifatida ijtimoiy sohaning rivojlanishi,aholining turmush sifati bilan,ularning farovonligini oshirish bilan ifodalanadiki,ayni vaqtda nvestitsiyalar nafaqat iqtisodiyotga, balki ijtimoiy sohalarga ham yo'naltiriladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalariga investitsiyalar kiritish aholining hayot sifatini oshiradi.Bir qator ijobiy natijalarga erishiladi,ya'ni ta'lim sifati yaxshilanishi,tibbiy xizmatlar kengayishi,aholining umr davomiyligi oshishi,ijtimoiy tenglik ta'minlanishi, kabilardir. Bu esa, hududning uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim omildir. Investitsion resurslarni hududlar kesimida to'g'ri taqsimlash iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytiradi. Rivojlanmagan hududlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ularning iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.1-jadval)

1-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar.

(mlrd. so'm) [6]

Hududlar	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	33280,7	5186,8	35299,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	401,9	137,8	2651,1
Andijon	2405,8	119,7	1440,7
Buxoro	4810,8	339,6	3515,7
Jizzax	2301,5	64,2	1393,8
Qashqadaryo	2558,6	486,7	4059,2
Navoiy	2706,8	806,2	4090,6
Namangan	2611,7	196,2	4234,2
Samarqand	1317,8	150,4	3101,1
Surxondaryo	2720,2	402,4	1611,8
Sirdaryo	1177,6	18,4	841,1
Toshkent	4055,8	272,5	4331,6
Farg'ona	1825,8	21,6	882,6
Xorazm	210,3	83,8	1295,6
Toshkent sh.	4176,2	2087,3	1850,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida hududlarda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 2024 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar, kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar hajmi keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga asosan, Qashqadaryo viloyatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2558,6 mlrd so'mni, Surxondaryo viloyatida esa to'g'ridan to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi o'z nabatida 2720,2 mlrd. so'mni tashkil etib, surxondaryo viloyatida qashqadaryo viloyatiga nisbatan 11,6 mlrd so'm ko'proq xorijiy investitsiyalar jalb etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida

xorijiy kreditlar Jizzax viloyatida 64,2 mlrd so'mni, Farg'ona viloyatida 21,6 mlrd so'mni, Xorazm viloyatida 83,8 mlrd so'mni tashkil etib,boshqa viloyatlarga nisbatan kamroq amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir hududning potentsial salohiyatidan hamda hududlarda jozibador investitsiya muhiti yaratilishi natijasida hududda ishlab chiqarish,xizmat ko'rsatish va aholi bandligi ta'minlanadi.

Hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishi oqibatida hududlar o'rtasidagi daromad farqi qisqaradi, ichki migratsiya kamayadi,iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, mamlakat bo'ylab muvozanatli rivojlanish ta'minlanadi. Amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar natijasida xorijiy investitsiyalarning



salmog'i yana ham yildan-yilga oshib borayotganligini quyida keltirilgan statistik ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. 2025-yilda O'zbekistonda o'zlashtirilgan umumiy xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi keskin o'sib, 43,1 milliard AQSh dollaridan oshdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24 foizga yuqorilab, asosiy qismini (38,2 mlrd dollar) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. 2025-yil investitsiya ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy ma'lumotlarni tahlil qilganimizda jami xorijiy investitsiyalar 43,1 mlrd AQSh dollari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 38,2 mlrd AQSh dollari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari: 4,9 mlrd AQSh dollari. o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan 24 foizga oshgan hisoblanadi.[7]. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 145 milliard dollardan oshdi, yalpi ichki mahsulot 2026-yildayoq 160 mlrd dollarga yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. 2025-yil iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetganini ko'rishimiz mumkin. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Natijada iqtisodiyotga kelgusi yillarda ham yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sib borishi uchun zamin bo'lishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartidir. Investitsiyalarni hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, maqsadli va oqilona yo'naltirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Shuningdek, investitsion resurslardan samarali foydalanish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi, aholi turmush darajasini oshiradi va mamlakatning umumiy raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu sababli, hududlarda investitsiya siyosatini takomillashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va mavjud resurslardan optimal foydalanish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, mamlakatimiz va uning alohida hududlari, uning iqtisodiy samaradorligi, bevosita investitsiya rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga turtki bo'ladi. Hududlardagi investitsion muhitni shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Mahalliy resurslardan oqilona foydalanish har bir hududning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Ma'lumki, har bir hudud o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslariga ega. Investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish orqali ushbu resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish muhim bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Shuning uchun ham hududlarning investitsion salohiyatini oshirishda quyidagi chora-tadbirlarni tadbiq etilishi muhim hisoblanadi:

birinchidan, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda investitsion resurslardan samarali foydalanish;

ikkinchidan, investitsiyani asosan, xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish;

uchinchidan, hududlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga etibor qaratish;

to'rtinchidan, mahalliy mahsulotlarni jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ustuvor tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

Yuqoridagi takliflarni amaliyotda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga investitsiyani jalb etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, kelgusida hududlarning investitsion salohiyatini yanada yuksaltirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Azimova Hulkar Egamberdiyevna Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va auditi" kafedrası dotsent v.b. / Azimova Hulkar Egamberdiyevna Acting Associate Professor, Department of Accounting and Audit, Karshi State Technical University / Азимова Хулкар Эгамбердиевна

и.о. доцента кафедры «Бухгалтерский учет и аудит», Каршинский государственный технический университет

E-mail: azimovakhulkar@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4468-6533

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni PD-60 son 28 yanvar 2022 yil

2. Vaxobov A.B., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya". 2010. -324 b

3. Toshpo'latov N.S. Innovatsion iqtisodiyot va investitsiyalar Toshkent. Iqtisodiyot, 2015v

4. Zengler T. The Case for Diversifikatsion of Investment Sectors. New York. Ekonomis. Press. 2004

5. Xolmatov M.Sh. Investitsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiya. Toshkent: Iqtisodiyot. 2018

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi. 2026 yil 26 dekabr



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz